




International Scientific and Practical Conference on the  
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and  
Achievement of the Present and Future"



## TARIXIY VA MADANIY BOYLIKLERIMIZNI MUHOFAZA QILISH VA UNI KELAJAK AVLODGA YETKAZISH.

*Nurmuradova Yulduz Bazarovna*

*"Arxitektura nazariyasi va tarixi" kafedrasi kata o'qituvchisi*

*Omonqulov Farrux Farxod o'g'li*

*203-arxitektura guruhi talabasi*

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada tarixiy va milliy yodgorliklarimizni asrash, himoya qilish va ularni qayta tiklash bo'yicha muammolar ko'rib chiqiladi. Biz milliy boyliklarimizni asrab-avaylab kelajakga yetkazishimiz lozimdir Chunki bizning ajdodlarimizdan qolgan buyuk merosimiz hisoblangan tarixiy obidalarimiz haqida alohida gapirib utmasak bo'lmaydi. Tarixiy shaharlarimizda joylashgan tarixiy obidalarimizni asrab avaylab ko'z qorachig'imizdek saqlash va uni kelajak avlodga yetkazish bizning bosh burchimiz hisoblanadi. Shunday ekan ularni qayta tiklash, rekonstruksiya qilishimiz, o'z holicha saqlashimiz uchun ishlar olib borishimiz lozim. Ba'zi topilmagan tarixiy madrasa yoki hammomlarning o'rniда yangi binolar qurishi ko'p ko'zatilmoqda. Biz bularni oldini olishimiz va asrashimiz kerak.

**Kalitso'zlar:** Tarix, meros, madaniy boylik, suv, aholi, muzey, tarix, me'morchilik, san'at, ramziy ma'no.

### Kirish:

Tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasi - insoniyat madaniy merosini saklash va muhofaza qilish yo'lidagi xalqaro, davlat va jamoatchilik tadbirdilari tizimi. Tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, adabiyot, tasviriy va amaliy san'at asarlari, arxeologik topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan majmualar, muhim i.t.lar muxrfaza etiladi. T. va m.yo.m., asosan, Uyg'onish davridan boshlangan. Buyuk fransuz inqilobi davrida shaxs i y kolleksiyalar natsionalizatsiya qilingan (Luvr muzeyinn tashkil etish to'g'risidagi dekret, 1793). 19—20-asrboshlarida ko'pgina Yevropa davlatlarida tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat muhofazasiga olingan. Ikkinci jahon urushidan so'ng YUNESKO tashabbusi bilan 1954 yilda (Gaaga konferensiyasi) Xalqaro konvensiya va "Qurolli konfliktlar ro'y berganda madaniyat boyliklarini himoya qilish to'g'risida" bayonnomma imzolangan. T. va m.yo.m. bilan Xalkaro muzeylar kengashi (1946), Madaniyat boyliklarini muhofaza etish va restavratsiya qilish xalqaro tadqiqot markazi (1959), Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza etish bo'yicha xalqaro kengash (1965) shug'ullanadi.

O'zbekistonda yodgorliklarni muhofaza etish, asosan, 20-asrning 20y.laridan boshlangan. 1920 y. Maorif xalq komissarligi qoshida muzeylar, san'at asarlari va qad. yodgorliklarni muhofaza qilish Turkiston qo'mitasi — Turkkomstaris tuzilgan, keyinchalik Sredazkomstaris bu ish bilan shug'ullanган. Hozir O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi huzuridagi Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiyishlab chiqarish. Bosh boshqarmasi shug'ullanmoqda. Respublika hududida va chet mamlakatlarda saqlanayotgan noyob qo'lyozmalar, madaniy, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi namunalari, san'at va badiiy asarlar, teatr musiqa, qad. davlatchilik tarixiga oid hujjatlar, qad. cholg'u asboblarini yig'ish, saklash va boshqa bilan shug'ullanish maqsadida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi tuzilgan (1999 y. 12 okt.).

Buyuk Ipak Yo'lining eng yorqin namunalari joylashgan azim Samarqandning 2750 yilligi tantana qilinar ekan, qadim yodgorlik va obidalarni asrab qolish yuzasidan fikrlar turlicha.

Mutaxassislar fikricha, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'ning tanqisligi yoki umuman yo'qligi muammolarning asosiy sabablaridandir.

Turli davlatlar arxeologlari tomonidan qazib topilayotgan noyob arxeologik yodgorliklar mablag' ajratilmagani bois qor-u yomg'ir ostida nurab ketishga mahkum bo'layotgani ham aytildi. Shu munosabat bilan ayrim o'zbekistonlik olimlar yodgorliklarni hozircha yer ostida qoldirgan ma'qul, deb hisoblashadi.

O'zbekistonning Samarqand viloyatidagi arxeologik qazilma ishlari paytida bo'y 10-12 metrli, eni 30 metrdan oshadigan piramidasimon minora topilgan. Mutaxassislar fikricha, miloddan avvalgi 7-8 asrlarga mansub bu yodgorlik betakrorligi bilan noyobdir. Tarix fanlari doktori Muhammadjon Isomiddinov gapiradi:

"Samarqanddan 35 kilometr shimolda, Ko'ktepa yodgorligida qadimgi shahar deb aytgan joyimiz hududida ikkita katta, yirik tepa bor. Biri miloddan ilgarigi 7-8 asrlarga oid haqiqiy ibodatxona bo'lib chiqyapti. O'shaning yonida qadimgi shahar hokimining qasri degan taxminimiz bor, lekin u yerda qadimgi piramidalarga o'xshagan minoralar bor. Haqiqatdan ham, baland qilib xom g'ishtlardan, guvalasimon g'ishtlardan baland qilib ko'tarilgan tepalar bor. O'shaning ustiga chiqib, olov yoqib o'shangaga ilk zardo'shtiyalar sig'ingan bo'lishi mumkin", - deb hisoblaydi Isomiddinov.

Bugun O'zbekistonda 10 mingga yaqin arxeologik yodgorliklar mavjud. Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz kabi shaharlar esa UNESCO ro'yxatiga kiritilgan va ular butunjahon madaniyati tarixi hisoblanadi.

Mutaxassislar fikricha, ayni paytda 2500 ga yaqin barcha arxitektura yodgorliklarining ahvolini qoniqarli deb bo'lmaydi. Buning sababini yodgorliklarni ro'yxatga olish, saqlash va foydalanish davlat nozirligi inspektori mana bunday izohlaydi:

"Muammolardan kattasi mablag' yetishmasligi. Katta, ko'zga ko'rindigan madaniy yodgorliklarimizga oz bo'lsa ham mablag' ajratiladi. Lekin respublikamizda qanchadan-qancha 16-15-14 asrlarda qurilgan, uzoq-uzoq qishloqlarda joylashgan kichkina-kichkina yodgorliklarimiz, masjid, maqbaralar, madrasalar, xonaqohlar joylashgan. O'shalarga bizning mablag'larimiz yetib bormaydi. O'shalalar yildan-yilga buzilib, nurab, yo'q bo'lib ketyapti", - deydi ismini oshkor etishni istamagan mutaxassis.

Mutaxassislar fikricha, joylardagi mahalliy davlat boshqaruvi organlarining me'moriy yodgorliklarga nisbatan o'zboshimchalarcha munosabati ham muammolarga bois bo'lmoqda.

"Joylardagi mahalliy davlat boshqaruvi organlarining buyrug'i bilan qanchadan-qancha mahalliy ahamiyatga molik arxitektura yodgorliklari buzilib ketyapti. Yodgorliklarni o'zboshimchalik bilan sotuvga qo'yish, ko'p yillarga ijara berish, shunday faktlar borki, me'moriy obidalarni xorij firmalariga sotib yuborishgacha borilyapti. Shunday faktlar Buxoro, Samarqand, Xivadek katta-katta shaharlarda uchrayapti. Vaholanki, arxitektura durdonalarini sotish u yerda tursin, uzoq vaqtga ijara berish ham noqonuniy deb hisoblanadi."

Mutaxassislarga ko'ra, o'tgan yillar mobaynida yer o'zlashtirish, paxta yetishtirish maqsadida respublikadagi arxeologik yodgorliklarning bir qismi nobud qilingan.

Tarixning bu noyob yodgorliklarining yana bir qismi esa, yo'l yotqizish, suv va gaz quvurlari o'tkazish, zavod va fabrikalar, bog'lar barpo etishda yo'q qilingan. Biroq bugun ham respublikada bu kabi holatlarga chek qo'yilmayotir, deydi yodgorliklarni saqlash nozirligi xodimi Yusufjon Qo'ziyev:

"Mana, bozor iqtisodiyoti ekan, qilganimni qilaman deb yo yodgorlik ustiga olib borib tom solishi mumkin, yodgorlikning o'rtasidan yorib yo'l qilishi mumkin, bog' ekishi mumkin, yoki buzib tashlashi mumkin. O'sha tomonlari hali bor. Yoki rayon hokimlari, shaharchalarning hokimlari shu yer menga berilgan ekan, men hokimmiman, demak nima istasam o'shani qilaman degan niyatlar bilan, palonchi yerdan yo'l och, palonchi yerni haydab tashla, ekinchilik qilamiz deb, o'sha sababli arxeologik yodgorliklarimiz yo'qolib ketishi mumkin. Bir marta yo'qoldimi, bo'ldi, hech kimning qo'lidan kelmaydi uni yangidan tuzish. Muammolar ko'p bu to'g'risida. Ularga xat yozyapmiz, kerak bo'lsa borib gapiriyapmiz hokimlari bilan. Sudlashgan tomonlarimiz ham bo'lган", - deydi nozirlik xodimi.

O'zbekiston tarixi, uning boy arxeologik merosi dunyo olimlarini ham jalb etmoqda. Keyingi yillar respublikada Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya, AQSh olimlari bilan birga ko'pgina qo'shma ekspedisiyalar ham olib borilayotir.



1-rasm

Biroq mutaxassislar bu qazilmalarning ba'zilari haqida davlat boshqaruviga o'z vaqtida ma'lumot berilmayotgani haqida aytishadi:

"Ba'zi odamlar yoki o'zlarini arxeolog hisob qiladimi, yoki o'zboshimchalik bilan ish olib borib, hukumat nazorat tashkilotlaridan ruxsatnomaga olmasdan kovlash ishlarini olib boryapti. Arxeolog-brakonyer desa bo'ladi ularni. Yoki ruxsatnomani bitta tepalikka olib, boshqa tepalikda ish olib borishadi. Yoki muzeydanmi, boshqadanmi

o'zboshimchalarcha mana, yer bizniki, viloyat bizniki, borib kovlanglar istagan yeringdan, deb aytilgan holatlар ham bo'lган", - deydi Qo'ziyev.

Ayni paytda respublika hududlarida 30 dan ortiq arxeologik qazilma ishlari olib borilayotir. Ular tosh asridan to 18 asrgacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Biroq bunday izlanishlarga davlat tomonidan mablag' ajratilmayotgani, yoda oz miqdorda ajratilayotgani bois, aksariyat nodir arxeologik qazilmalar xorijlik olimlar homiyligida o'tkazilmoqda.

Biroq bir-ikki yil o'tar-o'tmay qor-u yomg'ir ostida nurab ketishga mahkum bo'layotgan bu yodgorliklarni asrash ham qadimshunoslar oldida katta muammo bo'lib qolayotir.

Ba'zi mutaxassislar fikricha, to'laqonli qazishma ishlari olib borishga bugun respublika iqtisodiy yoda ilmiy imkoniyati yetmas ekan, hozircha tuproq ostidagi tarixni shundayligicha qoldirgan ma'qul.



2-rasm

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan buniyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimizning sha'nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

Bugungi kunda mamlakatimizda etti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichonqal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskoning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi.

Mustaqillik yillarida qayta tiklangan muqaddas qadamjolardan biri bo'lgan Oqmasjid Navoiy viloyati Xatirchi tumanida joylashgan. Bu masjidni ulug' zotlardan biri Sayyid ota buniyod etganlar. Qariyalarning aytishiga ko'ra, 1380-1390 yillarda buniyod etilgan Oqmasjid istiqlol davrida xalqimizning muqaddas ziyyaratgohiga aylanib, yaxshilik va ezgulikka, tinchlik va osoyishtalikka. O'zaro ahil va hamjihat bo'lishga xizmat qilmoqda.

Masjid 1920 yillargacha musulmonlarning eng sevimli maskaniga aylangan. Bu masjidda Buxoro madrasalarini tamomlab kelgan mudarrislar, ulamolar dars bergenlar, namozxonlarga shariat va tariyat yo'llaridan sabok bergenlar, ularni halollik va poklikka, tinchlik va osoyishtalikka da'vat etganlar. Biroq, o'sha mustabid sovet tuzumi boshlangandan keyin mullalar, namozxonlar qatagon kilindi. Masjidlar yopib qo'yildi. Biri «qulqoq», biri «Xalq dushmani», biri «Ruxoni», biri «Bosmachi», deb ayblangan xalqimiz masjidlarga borishdan uzoqlashdilar. Urush yillarida esa boshqa masjidlar kabi Oqmasjid xam omborxonaga aylantirildi. Sayyid ota qabrлari xam, masjid xam qarovsiz qolib, ko'rimsiz bir joyga aylanib qolgan edi. 1980 yillar atrofida xam namozxonlar kommunistik mafkura siyosatchilaridan qo'rqa-pisa masjidga kelib-ketar edilar. 1981 yil 1 sentyabrda tuman markazidagi Shayx Gadoy Selkin masjidining faoliyat ko'rsatishiga ruxsat berildi. Shu jumladan, Oqmasjidga xam.

Shundan so'ng din peshvolari, namozxonlar hashar uyushtirib, darhol obodonlashtrish ishlarini boshlab yuborishdi. 2003 yil 5 sentyabr kuni Oqmasjidning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Masjid yana faoliyat yurita boshladi.

Bugungi kunda Xatirchi tumanini o'zining mahobatli ko'rinishi bilan bezab turgan bu masjid kishilarни ezgulikka chorlab, namozxonlarga sharoit yaratib bermoqda.

O'tmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni e'zozlash, asori-atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk o'tmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan. Biz bu qadryat va milliy boyliklarimizni keljak avlodlarga yetkazishimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vergunov AP, Denisov MF, SS Ozhegov Landscape design. - M.: Higher School, 1991
2. Allen, D., D. Burr, T. Broadhurst Science Park: organization and management: Per. from English. / D. Allen, D. Berry, T. Broadhurst. - L., 2000. 3. Karcev, DA and Technopolis technology parks in the world economy and especially their development in Russia: Dis. . cand. ehkon. Sciences: 08.00.14 / DA Karcev. Moscow, 2000. - 230 p.
3. Нормуродова, Ю. Б. (2021). БАЗАРЫ ДРЕВНЕЙ БУХАРЫ. Экономика и социум, (4-2), 1176-1179. Nurmuradova, Y., & Baxodirova, R. (2020). TRADITIONAL ANCIENT BAZARS OF SAMARKAND AND TASHKENT. Интернаука, (43-2), 74-77.
4. Maxmatqulov, I. T. (2022). Proposals for the Use of Historic Shopping Malls in Uzbekistan for Modern Purposes. Middle European Scientific Bulletin, 21, 198-201.
5. Maxmatqulov, I. T., & Zubaydullayev, U. Z. (2021). Typology of Architectural-Compositional Solutions of Khanaka Buildings in Central Asia. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 2(10), 27-29.
6. Нормуродова, Ю. Б., & Садиков, Ж. Р. (2020). ДРЕВНИЕ БАЗАРЫ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА. In Наука и современное общество: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 196-201).
7. Elmurodovna, J. E. (2021). The Architecture of Karshi Castle, The Establishment, The Past and the Present. Middle European Scientific Bulletin, 18, 247-252.
8. Elmurodovna, J. E. (2021). Bukhara Registan: Past And Present. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 25(1), 160-166.
9. Jurayeva, E. E. (2023). ARCHITECTURE OF TASHKENT REGISTON SQUARE. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 190-203.
10. 11.Zubaydullayev, U. Z., & Maxmatqulov, I. T. (2021). ARCHITECTURE SELF-BUILT KHANAKA BUILDINGS OF MEDIEVAL CENTRAL ASIA. World Bulletin of Management and Law, 3, 56-59.
11. 12.Zubaydullayev, U. Z. (2023). THE IMPACT OF SMALL ARCHITECTURAL FORMS OF URBAN DESIGN ON THE TOURISM INDUSTRY. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(1), 137-143.